



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

“SHAYTANAT” ASARIDA KRIMINALLIK PSIXOLOGIYASI

Beknazarova Zarnigor Baxromovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi shundan iboratki, Tohir Malik qalamiga mansub “Shaytanat” [Malik, Tohir. Shaytanat. Toshkent: Sharq nashriyoti, 1994.] asari qaxramoni Asadbek obrazi psixologiyasini tahlil qilish. Shuningdek, shaytanat asari shunchaki jinoyat ustiga qurilgan kikirlangan dunyo emas balki manaviyatsizlik va jamiyatdagi adolatsizliklarning to‘qnashuvi natijasida yuzaga kelgan parallel dunyo ekanligini tahlil qilish. Maqola davomida qiyoslash obyekti sifatida Agata Kristining “Ular o‘nta edi”, “Rojer Ekroydning qotilligi” [Agatha Christie, The Murder of Roger Ackroyd (London: William Collins Sons, 1926), p. 312] kabi asarlari olinadi. A. Kristining “Ular o‘nta edi” [Agatha Christie, And Then There Were None (London: Collins Crime Club, 1939), p. 45.] asaridagi “samasud” ya’ni qonun qo‘li yetmagan jinoyatchilarni topib jazolashi “Shaytanat” Asaridagi ko‘pgina personajlarda kuzatish mumkinligini chuqurroq tahlil qilamiz. Qo‘shimcha ma’lumot o‘rnida aytish kerakki, “Shaytanat” asarida Asadbekning jinoyat olamiga kirishiga sababchi bo‘lgan asosiy mativlari hamda boshqa obrazlarning ham jinoyat olamiga kirishiga hizmat qilgan mativlarni chuqurroq o‘rganish maqsad qilinadi.

Kalit so‘zlar: Revalyutsiya; Mativ; Qurbon; Entelektualizm; Deduksiya; Qiyoslash; Detektiv; Ijtimoiy Detektiv; Jinoyat va jazo; Qotil; Jinoyatchi.

ПСИХОЛОГИЯ КРИМИНАЛЬНОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ "ШАЙТАНАТ"

Бекназарова Зарнигор Бахромовна
Университет экономики и педагогики, преподаватель

Аннотация

Цель данной научной статьи - проанализировать психологию персонажа Асадбека из произведения Тахира Малика "Шайтанат." Анализ того, что произведение дьявола - это не просто загрязненный мир, построенный на преступлении, а параллельный мир, возникший в результате столкновения безнравственности и несправедливости в обществе. В ходе статьи в качестве объекта сравнения берутся такие произведения Агаты Кристи, как "Они были десять" и "Убийство Роджера Экройда." Мы глубже проанализируем, как "самасуд," то есть наказание преступников, которых закон не мог постичь, можно наблюдать у многих персонажей "Шайтанат" в произведении А. Кристи "Они были десять." В качестве дополнительной информации следует отметить, что произведение "Шайтанат" направлено на более глубокое изучение основных мотивов, которые привели к вхождению Асадбека в преступный мир, а также мотивов, которые способствовали вхождению других персонажей в преступный мир.

Ключевые слова: Революция; Мотив; Курбан; Интеллектуализм; Дедукция; Сравнение; Детектив; Социальный детектив; Преступление и наказание; Убийца; Преступник.

CRIMINAL PSYCHOLOGY IN THE WORK "SHAYTANAT"

Beknazarova Zarnigor Baxromovna
University of Economics and Pedagogy, Lecturer

Abstract

The purpose of this scientific article is to analyze the psychology of the character of Asadbek, the hero of the work "Shaytanat" by Tahir Malik. Also, it is necessary to analyze that the work of Satan is not just a corrupted world built on crime, but a parallel world that arose as a result of the clash of immorality and injustice in society. During the article, Agatha Christie's works such as "They Were Ten" and "The Murder of Roger Ackroyd" are taken as objects of comparison. We will analyze in more depth how A. Christie's the punishment of criminals untouched by law, can be observed in many characters of "Shaytanat." For additional information, it should be noted that the work "Shaytanat" aims to study the main motives that led to Asadbek's entry into the criminal world, as well as the motives that served to bring other characters into the criminal world.

Keywords: Revolution; Motive; Victim; Intellectualism; Deduction; Comparison; Detective; Social Detective; Crime and Punishment; Murderer; Criminal.

Adib takidlaganidek , “Shaytanat jinoyat olami orqali jamiyatdagi axloqiy inqiroz va qadriyatlar yemirilishini ochib beradi.”[4Malik, T. Shaytanat. Toshkent: Sharq nashriyoti, 1994.] [Malik,T., 1994] Asadbek va boshqa obrazlar shunchaki jamiyatni kirliklardan tozalovchi yoki zo’ravonlar sifatidagina tasvirlanibgina qolmay balki asarda qahramonlar an’anaviy ‘yaxshiyomon’ chegarasidan chiqib, murakkab psixologik tabiatga ega qilib tasvirlangan[Karimov, B. “O‘zbek detektiv nasrida yangi yo‘nalishlar.” O‘zbek adabiyoti jurnali, 2005.]. [Karimov,B., 2005] Misol o‘rnida Asadbek obrazini olsak, bir obraz butun Sovet ittifoqidagi mamlakatlarda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan kriminal olamining “otasi” bo‘lsa, boshqa tomondan farzandlari uchun qayg‘uruvchi ota, yana boshqa tomondan esa oila muammolari yelkasida bo‘lgan umr yo‘ldosh. Jinoyat haqida bildirilgan fikrlarga kengroq nazar tashlaydigan bo‘lsak, Bartolning fikricha – jinoyat ko‘pincha tasodif emas, balki shaxsning ongli yoki yarim ongli qarorlar tizimi natijasidir.[Bartol, C. R., & Bartol, A. M. Criminal Psychology: A Contemporary Introduction. Routledge, 2019.

] [Bartol,C.R., 2019]Bunga misol sifatida Elchin obrazini olishimiz mumkin. Elchin jinoyatga qo‘l urish orqali Asadbekdan o‘ch olish yoki surgun muddati tugagach o‘z hayotida davom etishi mumkin edi. Ammo Elchin Asadbekning qizini o‘g‘irlab uni badnom qilish orqali jinoyatga qo‘l urishni hech qanday tashqi ta’sir va bosimlarsiz tanlaydi. Qo‘shimcha o‘rnida shuni aytish kerakki, kriminal xulq-atvor ko‘pincha ijtimoiy muhit, oilaviy muammolar va tarbiya yetishmovchiligi bilan bog‘liq.[Albert, B., 1977][Albert Bandura. Social Learning Theory. 1977.] Bunga Asadbek obrazi yaqqol misol bo‘la oladi: “Asadbek otasining olib ketilishini jim kuzatar ekan, uning qalbida ilk bor adolatsizlikka qarshi sovuq va og‘ir tuyg‘u uyg‘ondi.”[Malik, T. Shaytanat. Toshkent: Sharq nashriyoti, 1994.][Malik,T., 1994]

Asosiy qisim.

Asar bosh qaxramoni Asadbek jinoyat olamiga kirib kelishi va butun jinoyat olamini titrata oladigan, adolatsizlikka bo‘lgan nafrat hissi, ich ichidan g‘azab va atrofidagi barcha sodir bo‘lishi mumkin yoki bo‘layotgan ishlarga bo‘lgan sovuqqonlikning shakillanishiga hamda shaxsiyatini rivoj topishiga yangi yil kechasi otasining olib ketilishi sabab bo‘ldi. “Asadbekning bolalikdagi ruhiy zarbalari uning keyingi hayot yo‘lini belgilab beradi.”[Malik, T. Shaytanat. Toshkent: Sharq nashriyoti, 1994.] [Malik,T., 1994]. Bundan ko‘rinib turibdiki, Asadbekning bolalikdagi travmasini jinoyat olamiga kirishiga mativ bo‘lib hizmat qilgan. Ammo Albert Bandura fikricha jinoyat muhitida yashagan shaxs asta-sekin shu muhit qoidalarini qabul qiladi. [Bandura,A., 1977, pp30]. Misol sifatida, Mario Puzoning “Cho‘qintirgan ota” (“God Father”) asaridagi Maykl Karlioni ham dastlab jinoiy oilada axloqiy chetda qolgan shaxs hisoblanadi [Puzo, M., 1969, pp – 26][Mario Puzo. The Godfather. 1969] ammo Sanni Karlioning o‘ldirilishi va otasiga suyoqast sodir etilishi, rafiqasi aslida Mayklga atalgan o‘limni tasodifan qarshilagani uning

jinoyat olamidagi otasining urnini egallaydi. Asadbekning jinoyat olamiga kirishiga asosiy motiv bu otasining qamalishi va surgunda o'lib ketishi bo'ldi. Bunga yana bir qiyos sifatida "Shaytanat" asaridan Elchin obrazini olishimiz mumkin. Elchin obrazi orqali biz jinoyatga ilk qadam quay boshlagan insonning shaxsiy insoniy qadriyatlari sekinlik bilan o'zgarishni boshlaydi.[Siegel, L. Criminology. 2018][Siegel,L., 2018, pp – 45.] bundan tashqari Bartol fikriga quloq soladigan bo'lsak, "Shaytanat" asaridagi Elchin obrazi qanchilik qasos o'tida Asadbekga nafrat bilan ko'zlari qonga to'lgan bo'lmasin, uning tepasida turgan boshliqlariga sodiq, shunday bo'lsada ruhan qo'rquv va bosim ostida yashaydi. Bu kabi jinoyatchilar jinoyat olamida bo'ysunuvchilar deb ataladi[Bartol, C. Criminal Psychology. 2019] [Bartol,C., 2019, pp – 57.]. Mario Puzoning "Cho'qintirgan ota" asarida jinoyat olamida bo'ysunuvchi sifatida Mayklning Fredo Karlioniyni olishimiz mumkin. Ko'p hollarda qasos motivi bilan jinoyat olamiga kirgan va jinoyatdan yiroq bo'lgan odamlar keyinchalik ichki konfliktlar iskanjasida qolib ketishadi. Misol uchun, Elchin butunlay yovuz emas aksincha bazan vijdon azobida qolib ketadi, bazan esa pushaymonlik hissi butun aqli hushini chulg'ab oladi. Yoxelsonning fikricha jinoiy shaxslar tez-tez ichki vijdon azoblarini boshdan o'tqazadilar. [Yochelson,S., 1976, pp – 25][Yochelson, S. The Criminal Personality. 1976.]. Jinoyat olamiga chuqurroq shung'igani sayin Elchin ham boshqa kriminallar ta'siri ostida atrofda qiynalayotganlarga nisbatan befarq bo'lib boradi, shuningdek, insoniy his tuyg'ular Elchinda yo'qolib boradi.

Heyrning takidlashicha 'Exposure to violence reduces emotional sensitivity' ya'ni jinoyatga bo'lgan yaqinlik bora boar insonning emotsional sezgirligini yuqotib boradi. [Hare,R., 1999, pp – 12]. Bunday holat hammaga har xil tasir qiladi va bunda insoniylik psixologiyasi ham kata o'rin tutadi. Ya'ni Elchin avval boshidan jinoyat olami uchun emasdi ammo qasos motivi uni jinoyat olamiga yetaklaydi. Asadbek ham murg'ak, pok qalb egasi edi ammo otasining qamalishi keyinchalik surgun bo'lib ketishi onasining sog'lig'ini yuqotishga va orada Samandarning o'limiga keyinchalik onasining ham o'limiga sababchi bo'ladi. Bularning bari esa Asadbekning jinoyatga kirib kelishiga motiv bo'lib hizmazat qiladi. Jinoyat olamiga kirib kelgan bo'lishiga qaramay, na Asadbek va na Elchin kimningdir jonini beasab og'ritmaydi. Sabbi chin zaminida poklik hamon saqlanib qoladi. Ammo Kesak polvon bundan mustasno edi. U huddiki jinoyat olami uchun avval boshidan yaratilgandek edi. Beayb qizlarning Asadbek nomidan foydalanib badnom bo'lishiga ham o'zi bosh qosh bo'ladi.

Takidlash joyezki, Asadbek va Maykl Karleoni, obrazlariningumumiy o'xshashligi shundaki, ular garchan jinoyat olamida o'zining dominant o'rniga ega va qo'l ostidagilar hayiqadigan shaxs bo'lsalarda, o'z insoniylik sifatleri zahirida qolgan shafqatsiz "kasbdoshlar"idan farq qilishadi. Asar Ichida qiyoslaydigan bo'lsak, Elchin obrazi psixologiyasi hamda Asadbek obrazi psixologiyasi boshqa obrazlarga nisbatan vijdon, or-nomus tushunchalari zahirida ish tutishadi. Ammo o'zaro solishtirilganda Asadbek – bu shunaqa obrazki, u uchun yaratgandan o'zgasi qo'rqishga arzimaydi. Elchin – obrazi buni tan olmasada qilmishining oshkor bo'lishi bilan Asadbekdan nimalar kutishi mumkinligini bilgan holatda qo'rquv Ichida yashaydi. Yoxelsonning fikricha jinoiy shaxslar tez-tez ichki vijdon azoblarini boshdan o'tqazadilar. [Yochelson,S., 1976, pp – 25][Yochelson, S. The Criminal Personality. 1976.]. Demak, Asadbek psixologiyasi Yoxelsin takidlagan vijdon azoblaridan holi ammo Elchin haqida bunday deyib bo'lmaydi. Sababi hatto Asadbekning qo'li bo'lmagan jinoat uchun begunox qiziga jabr yetkazadi. Demakki jinoyatga bo'lgan yaqinlik bora boar insonning emotsional sezgirligini yuqolib borishiga sabab bo'ladi. [Hare,R., 1999, pp – 12].

Xulosa

Asardagi barcha obraz psixologizmi shuni ko'rsatadiki, hech kim tug'ilganida jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi, balki ijtimoiy muhit, hayot davomida turli ortirilgan travmalar, va shaxslarning individual tanlovlari doirasida shakillanadi. Demak, Shaytanat nafaqat jinoyat haqida asar, balki inson ruhiyati, ijtimoiy bosim va axloqiy tanlovlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur

ochib beruvchi psixologik roman hisoblanadi.[Malik, T. Shaytanat. Toshkent: Sharq nashriyoti, 1994.] [Malik,T., 1994, pp – 11] asar davomida adib jinoyatchilikni alohida shaxslarga tegishli muammo sifatida emas balki ularni o‘rab turgan jamiyat va undagi adolatsizliklar va turli xil muammolar talqini deb hisoblaydi. Aynan Asadbek va Elchin obrazlari orqali Tohir Malik o‘zining shaytanat asarida inson bolasi jinoaytga jinoyatga birdaniga osmondan tushgandek kirib qolmaydi, qo‘shilib qolmaydi balki bosqichma bosqich, birin ketin yuzaga keladigan va invidlar boshidan o‘tqazishi mumkin bo‘lgan transformatsion holat ekanini tushuntiradi. Qo‘shimcha o‘rnida aytish kerakki, demak inson yashayotgan va uni o‘rab turgan muhit uning axloqiy prinsiplari, dunyo qarashlari va insoniy xulq atvorlarini tubdan o‘zgartirib yuborish xususiyatiga ega.

Boshqa adiblarning fikriga nazar soladigan bo‘lsak, Rasulovning fikricha Shaytanat asari jinoyat olami hayotiy va real tasvirlangan bo‘lib, bu uni o‘quvchi uchun yanada ta’sirchan qiladi[Rasulov, A. Zamonaviy o‘zbek romanchiligi. Toshkent, 2012][Rasulov,A., 2012, pp – 11]. Ammo muallif asar qaxramonlarini o‘quvchini jinoyat yo‘lining oqibatlaridan ogohlantiruvchi kuchli badiiy vosita sifatida talqin qilish mumkin[Normatov, U. Ijod va talqin. Toshkent, 2008.]. [Normatov,U., 2008, pp – 4]. Umaman olganda yozuvchilar qaxramonlarni o‘quvchiga namuna yoki qaysi yo‘lni tanlasa nima bilan tugashi mumkinligini ko‘rsatish maqsadidagina o‘ylab topishadi. Shu qatorda Tohir Malik ham “Shaytanat” asaridagi barcha obrazlarni turli xil psixologik sotsial muammolarga yechim bo‘la olishi uchun so‘zlar yordamida jonlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Agatha Christie, *The Murder of Roger Ackroyd* (London: William Collins Sons, 1926), p. 312
2. Agatha Christie, *And Then There Were None* (London: Collins Crime Club, 1939), p. 45
3. Albert Bandura. *Social Learning Theory*. 1977.
4. Bartol, C. R., & Bartol, A. M. *Criminal Psychology: A Contemporary Introduction*. Routledge, 2019.
5. Karimov, B. “O‘zbek detektiv nasrida yangi yo‘nalishlar.” *O‘zbek adabiyoti jurnali*, 2005.
6. Malik, T. *Shaytanat*. Toshkent: Sharq nashriyoti, 1994
7. Mario Puzo. *The Godfather*. 1969
8. Siegel, L. *Criminology*. 2018
11. Rasulov, A. *Zamonaviy o‘zbek romanchiligi*. Toshkent, 2012
10. Normatov, U. *Ijod va talqin*. Toshkent, 2008
12. Yochelson, S. *The Criminal Personality*. 1976.